

Toshkent shahridagi davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar o'rtasidagi "To'maris izdoshlari" nomli sport tanlovini o'tkazish to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1.1. 1. Mazkur Nizom talaba-qizlar o'rtasida o'tkaziladigan **"To'maris izdoshlari"** sport tanlovining (bundan buyon matnda tanlov deb yuritiladi) maqsad va vazifalarini, ushbu tanlovni tashkillashtirish, o'tkazish va baholashni, g'olib jamoalarni aniqlash hamda ularni taqdirlash tartibini belgilab beradi.

1.2. Tanlovning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Talaba-qizlar o'rtasida sog'lom turmush-tarzini rivojlantirish;

Xotin-qizlarning ongida tariximiz, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtiromini yuksaltirish;

Hayotda doimo g'alabaga intilish va yuksak vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish;

Qat'iyat, iroda va shukronalik hamda o'z Vataniga va ilm-fanga bo'lgan mehr-sadoqat hissini oshirish.

1.3. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun mas'ul Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, Yengil atletika va O'zbekiston velosiped sporti federatsiyasi hamda hamkor vazirlik va idoralar etib belgilandi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2.1. Mamlakatimizdagi xotin-qizlarning sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, ularni umuminsoniy, milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvar qizlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish;

xotin-qizlarni buyuk ajdodlarimiz ibratli tarixi, Vatanga muhabbat, ezgulik, rahmdillik, halollik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va fidoyilik singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatga tanlov orqali jalb etish.

III. Tanlovni tashkil etish

3.1. Tanlovning asosiy tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisoblanadi.

3.2. Tanlov jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar hamkor vazirlik va idoralarning rasmiy veb saytlarida yoritib boriladi.

IV. Tanlovni o'tkazish joyi va muddati

4.1. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

Birinchi bosqich – Ta'lim muassasasi ichki saralash bosqichi 2025-yil 28-apreldan 3-maygacha. **Ikkinchi bosqich** – Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hududiy bosqich 2025-yil 15-mayda o'tkaziladi.

V. Tanlov ishtirokchilari

5.1. Tanlov oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlardan iborat jamoalar o'rtasida bo'lib o'tadi.

VI. Tanlov shartlari

1-shart. “Jamoani tanishtirish”

Mazkur shartda jamoa o‘zini san’at turlari (milliy raqs, she’r, qo‘shiq, xalq o‘yinlari)ni qo‘llagan holda tanishtirishlari lozim. Jamoadagi bir nafar ishtirokchi To‘maris siymosini gavdalantirishi talab etiladi.

Shart davomiyligi: 3-5 daqiqa.

Shartni baholash-5 **ballgacha**.

2-shart. “Sport bilan hamnafasmiz”

1. 100 metrga yugurish mashqi.

Ushbu shartda barcha ishtirokchi jamoalar 100 metrga yugurishadi. Jamoadagi ishtirokchilarning marraga yetib kelishi 5 ballik tizim bilan baholanadi.

2. 400x300x200x100 metrga estafeta yugurish mashqi.

Musobaqada **4 ta ishtirokchi** qatnashadi. Birinchi ishtirokchi 400 metrga, ikkinchi ishtirokchi 300 metrga, uchinchi ishtirokchi 200 metrga va to‘rtinchi ishtirokchi 100 metrga estafeta yuguradi.

Mashq bajarishda quyidagi hollarda ballar olib tashlanadi:

mashqini bajarishda ishtirokchilardan biri estafeta tayoqchasini tushirib yuborsa va estafeta tayoqchasiz o‘ziga berilgan masofani bosib o‘tsa jamoaning estafeta bo‘yicha natijalari hisobga olinmaydi;

estafeta yugurish mobaynida navbatdagi ishtirokchi belgilangan masofada estafeta tayoqchasini olishi lozim, estafeta tayoqchasini belgilangan masofaga yetib kelmasdan qabul qilib olsa va mashqni bajarishda davom etsa jamoaning estafeta mashqi uchun olgan balidan 2,5 ball olib tashlanadi.

Umumiy 4 nafar ishtirokchilarning vaqti umumlashtiriladi va 10 ballik baholash tizimi orqali baholanadi.

3.Dars uloqtirish.

Har bir jamoadan bittadan vakil 2 metr uzoqlikda 3 marotaba urinish bilan dars uloqtirishni amalga oshiradi. Har bir to‘g‘ri otilgan nishonga 5 ball beriladi. 3 marotaba urinishda ham mo‘ljalga to‘g‘ri urilgan bo‘lsada faqat, bittasi hisobga olinadi.

4. Kamondan o‘q otish.

Har bir jamoadan bittadan vakil 10 metr uzoqlikda 3 ta o‘q bilan 3 marotaba urinishni amalga oshiradi. Har bir urilgan halqaga qarab ball belgilanadi.

3-shart. “Birinchi tibbiy yordam”

Ushbu shart bo‘yicha ishtirokchi jamoalar birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish turlari haqida tushunchalar berishi hamda sahna ko‘rinishlari orqali ko‘rsatib berishi kerak.

Shart davomiyligi: 3-5 daqiqa.

Shartni baholash-5 **ballgacha**.

4-shart. Velosepeda uchish

Ushbu shartda har bir jamoadan ikkita ishtirokchi 100 metr masofani velosipedda bosib o‘tadi. Har ikki ishtirokchining umumiy vaqt ko‘rsatkichi asosida 5 ballik

tizimda baholanadi. Yo‘l bo‘ylab belgilangan belgilardan chiqib ketgan jamoa ishtirokchisining natijasi hisobga olinmaydi.

Shart davomiyligi: 3-5 daqiqa.

Shartni baholash-5 **ballgacha**.

VII. Tanlovda ishtirok etish tartibi

7.1. Tanlov ishtirokchilari Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba — qizlar orasidan saralab olinadi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

7.2. Shartlar bo‘yicha ishtirokchilar soni o‘zaro kelishuv asosida (6 ta asosiy 2 ta zaxira) qatnashishi mumkin.

7.3. Tanlov g‘oliblari Hakamlar hay‘ati a‘zolari tomonidan aniqlanadi.

VIII. Tanlovning baholash tartibi

8.1. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishda qonuniylik, shaffoflik, oshkoralik, adolatlilik, tenglik kabi asosiy prinsiplarga rioya qilinadi. Tanlov hay‘ati xolislik va shaffoflik asosida tanlovda ishtirok etmaydigan tegishli soha mutaxassislaridan tayinlanadi. Har bir shart bo‘yicha g‘oliblar nizomda keltirilgan baholash mezonlari bo‘yicha aniqlanadi.

IX. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

9.1. Taqdirlash marosimida tashkiliy guruh a‘zolari, hamkor vazirlik va idoralarning xodimlari hamda homiy korxona va tashkilotlarning vakillari ishtirok etadi.

9.2 Tanlov g‘oliblarning baholash natijasiga ko‘ra, birinchi o‘rin I-darajali, ikkinchi o‘rin II-darajali va uchinchi o‘rin III-darajali Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplomi hamda birinchi o‘ringa kubok topshiriladi.

Shuningdek, ushbu jamoadagi har bir ishtirokchi qimmatbaho sovg‘alar va pul mukofotlari taqdirlanadi.

Tanlov davomida faol ishtirok etgan, tashabbus ko‘rsatgan va ajoyib natijalar ko‘rsatgan ishtirokchilar quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha rag‘batlantiriladi: “Eng ijodkor jamoa”, “Eng hamjihat jamoa”, “Eng faol qatnashuvchi” kabi yo‘nalishlar. Ularga tanlov tashkilotchilarining esdalik sovg‘alari, kitoblar to‘plami, “Faxriy yorliqlar” topshiriladi.

X. Tanlovning yoritilishi

10.1. Tanlov respublika ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb saytlarda, televideniye va radioda keng yoritiladi.

XI. Yakuniy qoidalar

11.1. Tanlovga davlat va nodavlat tashkilotlar homiylik qilishlari mumkin.

11.2. Tanlovning Nizom talablari asosida ijrosini nazorat qilish tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.